85.315.3
A 99

78(07)

X.F. AZIMOV

FORTEPIANO darsligi

MUSIQA MAKTABLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARI UCHUN DARSLIK

Madaniyat ishlari vazirligi istiqbolni belgilash, uslubiyat va axborot Respublika Markazi nashrga tavsiya etgan

Абдулла Қодирий номидаги
Тошкент давлат маданият ин-ти
асосий кутубхонаси
25787 Тартиб №
Фундаментальная библиотека
Таш ГИК им. А. Кадыри
Инв. №

TOSHKENT "O'QITUVCHI" 1998

Mazkur darslik 1971 yilda chop etilgan „Fortepiano darsligi“ kitobining to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri bo‘lib, asosan o‘zbek xalq kuy-ohanglari negizida yaratilgan asarlardan tuzilgan. Ular yosh sozandalarning fortepiano chalish ko‘nikmalarini hosil qilishiga, ijro malakalarini tobora oshirib borishiga qaratilgan.

Darslik bolalar musiqa va san’at maktablarining maxsus fortepiano ixtisosligi bo‘yicha bilim olayotgan quyi sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Undan umumiy fortepiano fanidan tahsil ko‘ruvchi yuqori sinf o‘quvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir:
dotsent, san’atshunoslik fanlari nomzodi
R. Yu. Yunusov

Taqrizchilar: M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining dotsenti **I. A. Abdullayeva**
V. Uspenskiy nomidagi respublika maxsus musiqa maktab-internatining direktori **K.O. Zoirov.**

85.315.3
A 99

Azimov X.
Fortepiano darsligi: Musiqa maktablarining boshlang‘ich sinflari uchun darslik. — T.:„O‘qituvchi“, 1998.–264 b.

BBK 85.315.3

4306021800

ISBN 5–645–03321–3

© „O‘qituvchi“ 1998 y.

XOLMIRZA AZIMOV
(1925 — 1992)

O‘zbekistonda maxsus musiqa ta’limi hamda zamonaviy fortepiano ijrochiligining shakllanishi va rivojlanishiga Xolmirza Fayzullayevich Azimov katta hissa qo‘shdi. U mohir sozanda, jonkuyar ustoz, taniqli musiqa ijodkori va targ‘ibotchisi edi.

Bo‘lajak san’atkor Namangan shahrida tavallud topib, musiqa bilim yurtida tahsil ko‘rdi. Bilim yurtida o‘qishi davrida u ilk bor fortepianoda chalish ko‘nikmalarini o‘zlashtirdi. Keyinchalik fortepiano uning eng sevimli cholg‘usiga aylanib qoldi. Yosh pianinochi maxsus fortepiano ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olishni davom ettirish maqsadida Toshkent davlat konservatoriyasiga o‘qishga kirdi. Xolmirza Azimov 1954 yilda o‘zbek milliy kadrlaridan yetishib chiqqan birinchi pianinochi sifatida o‘qishni muvaffaqiyatli tugalladi.

Ustoz oliy musiqa o‘quv yurtida umrining oxirigacha mehnat qilib, yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatdi. O‘qituvchi, dotsent, fakultet dekani, kafedra mudiri, ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor, professor lavozimlarida uning ibratli faoliyati musiqiy ta’lim samaradorligini oshirishga qaratildi. X. F. Azimovning 1960—70- yillarda ba’zan yakka, ko‘proq esa turli ixcham ansambllar tarkibidagi sahna ijrochiligi orqali O‘zbekiston kompozitorlarining xilma-xil asarlari, shuningdek, chet el mumtoz musiqasi tez-tez yangrab turdi.

Xolmirza Fayzullayevich Azimov nafaqat mohir pianinoshi, iqtidorli kompozitor, jonkuyar muallim, balki mazkur sohada yetakchi uslubiyotchi-olim sifatida respublikamizda keng tanildi. U musiqa ta’limining boshlang‘ich, o‘rta va oliy bosqichlarida ko‘p yillar mobaynida samarali mehnat qilib, o‘ziga xos maktab yaratishga muvaffaq bo‘ldi. X.F.Azimov ko‘lami keng, serqirra va fidokorona faoliyati uchun „O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi“ faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan.

Taniqli ustoz bo‘lajak musiqachilarda kasb ko‘nikmalarini hosil qilish bilan bir vaqtda fortepiano cholg‘usi vositasida bolalar va o‘smirlarning umummusiqiy qobiliyatini o‘stirish, badiiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga alohida diqqat-e’tibor qaratdi. Shu bilan birga X.Azimov jahon mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda o‘zbek milliy kuy-ohanglari zaminida fortepiano uchun yaratilgan, qayta ishlangan yoki unga moslashtirilgan, o‘quv jarayonida turli maqsadlarga yo‘naltirilgan qiziqarli, jarangdor asarlar bilan o‘quv dasturlarini boyitishga munosib hissa qo‘shdi.

Bu borada atoqli san’atkor mavjud misollar bilan kifoyalanmay, o‘nlab o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarini fortepiano uchun moslashtirdi, qayta ishladi, yosh sozandalarga bag‘ishlab katta-kichik shakllarda mazmundor asarlar bastaladi. U ilk bor o‘zbek musiqasi asosida "Fortepiano darsligi"ni yaratib, **1971** yilda nashr ettirishga muvaffaq bo‘ldi. Shundan so‘ng ham talabchan muallif darslik ustida ilmiy-ijodiy izlanishlarni davom ettirdi, uni yangi-yangi, qisman o‘zi ijod etgan musiqiy namunalar bilan to‘ldirib bordi, uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqdi. Xolmirza Azimov bolalar musiqa maktabida bir necha yillar davomida o‘qituvchilik qilib, o‘z darsligini amaliy sinovdan o‘tkazdi. Bu sa’i-harakatlar natijasida nisbatan mukammal, hozirgi zamon talab va ehtiyojlarini qondira oladigan, o‘zbek pianinochilarini tarbiyalashda qo‘l keladigan darslikning yangi qo‘lyozmasi tayyorlandi. Afsus, uning nashrini ko‘rish muallifga nasib etmadi...

O‘ylaymizki, ushbu darslik fortepianoda chalishni o‘zlashtiruvchilar uchun manzur bo‘lib, ularning ijro mahoratini tobora oshirishga, shuningdek, jahon bo‘ylab keng tarqalgan fortepiano cholg‘usida o‘zbekcha kuylar yanada ko‘proq yangrashiga baholi qudrat xizmat qiladi.

RAVSHAN YUNUSOV

SO‘Z BOSHI

Musiqa — nafis san’at turlaridan biri bo‘lib, u inson hayotini, uning ma’naviy dunyosini, turli-tuman kayfiyati-yu, rang-barang his-tuyg‘ularini tovush va usullar vositasi yordamida ifodalaydi. Tinglovchi musiqa tilini tushuna boshlagach, uning hissiyotlari va tafakkuri boyib boradi va shu tufayli asarning musiqiy mazmunini tobora chuqurroq idrok eta boshlaydi. Bu esa insonning ruhiy olamga, ma’naviyat va badiiyat dunyosiga kirib kelayotganidan dalolat beradi.

Musiqa asari tinglovchilarga har xil ta’sir etishi mumkin. Zero musiqani tinglayotgan har bir kishi o‘zining boshidan ko‘rgan-kechirganlarini tasavvur qiladi. Shu boisdan ham musiqiy asarni idrok etish avvalo, tinglovchining xayollari, fikr yuritish qobiliyati, madaniyati va ma’naviy olamiga bog‘liq. Darhaqiqat, kuy va qo‘shiq odamzodning doimiy yo‘ldoshi bo‘lib, kishi qalbining ruhlanishida, dilining pok saqlanishida, xalqparvar, komil inson bo‘lib etishishida muhim o‘rin egallaydi. Chunki, ma’naviy go‘zallik insonning eng qimmatli fazilatlaridan biridir.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, milliy madaniyatni taraqqiy ettirishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan o‘zbek xalqining juda qadimiy musiqa san’atini, boy va o‘ziga xos tilini, urf-odatlarini, milliy an’analarini o‘rganishga keng imkoniyatlar ochildi. Zero xalqimizning musiqa merosi uning ma’naviy dunyosini — o‘ tmishini, orzu-umidlarini, his-tuyg‘ularini o‘zida mujassam qilgan. O‘z navbatida, har bir xalqning milliy musiqasi avvalo uning kuy ohanglari orqali namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalqining an’anaviy hamda hozirgi zamon musiqa ijodiyoti o‘ziga xos, betakror va noyob ohang-uslublarga ega.

Ushbu fortepiano darsligidan joy olgan musiqa misollari ham asosan ana .shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘zbek musiqasi zaminida yaratilgan namunalardan tuzilgan.

Ma’lumki fortepiano dunyo mamlakatlarida eng ko‘p tarqalgan baynalmilal cholg‘u asboblaridan biri bo‘lib, nufuzli o‘rin egallaydi. Zero uning badiiy va texnikaviy imkoniyatlari juda keng va rang-barangdir.

Hozirgi vaqtda respublikamizda 300 dan ortiq bolalar musiqa va san’at maktablari mavjud. Ularda xilma-xil cholg‘ular qatorida fortepianoda chalish sirlari ham o‘rgatilmoqda. Lekin afsuski, ushbu maktablar uchun milliy ruh bilan sug‘orilgan, o‘zbek xalq musiqasi asosida tuzilgan o‘quv qo‘llanmalar va nota to‘plamlari juda kam. Ushbu darslikni esa muallif mazkur yo‘ldagi qadamlardan biri deb biladi.

USLUBIY TAVSIYALAR

Darslik asosan yetti yillik musiqa va san’at maktablarining boshlang‘ich sinflari uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, undan umumiy fortepiano o‘qitiladigan o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ham foydalanish mumkin.

Tanlab olingan musiqiy asarlar muayyan tartibga keltirilib, quyidagi bo‘limlarga taqsimlangan:

I bo‘ lim — Qo‘ shiqlar, pyesalar, etyudlar va jo‘rnavozliklar.

II bo‘ lim — Polifonik kuylar.

III bo‘ lim — Sonatina va variatsiyalar.

IV bo‘ lim — To‘ rt qo‘ l ijrosi uchun pyesalar.

V bo‘ lim — Gammalar, akkordlar va arpedjio.

Musiqa va san’at maktablarida ta’lim olishga kirishib, musiqa olamiga dastlabki qadam qo‘ya boshlagan o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, badiiy-estetik didini tarbiyalash va musiqa asarlarini mazmunli, ma’noli va hayajonlanib, tuyg‘ulanib ijro etishga o‘rgatish, bolaning badiiy qobiliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan sanaladi.

O‘qituvchi bolaning ijrochilik mahoratini o‘stirish bilan bir qatorda, uning kamoloti, ma’naviy dunyosini kengayib borishiga ham alohida e’tibor berishi o‘rinlidir.

Birinchi darsdan boshlab, barcha mashg‘ulotlarni muallim maroqli, qiziqarli va tushunarli darajada o‘tkazishga intilishi lozim. Ayniqsa, musiqa ta’limining boshlang‘ich davrlarida o‘quvchining zehni va xotirasi, musiqa ohanglari va usullarini eshitish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berish darkor. Bular esa ijrochilik ixtisosligining negizini tashkil qiluvchi omillardandir. Shuning uchun ham kuy va pyesalar ustida ish boshlagan davrdanoq o‘quvchining sezgi a’zolarini uyg‘otish va tinglash qobiliyatini muntazam rivojlantirib borish kerak.

Ko‘p yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki,

dastlab oson va yengil, tez esda qoladigan qo'shiqlarni so'zlari bilan aytish, so'ngra shu qo'shiqlarni fortepianoda o'qituvchi ko'rsatgan klavishadan chalishga urinish eng qulay yo'ldir.

O'qituvchi darsda hirgoyi qilish, qo'shiq kuyini fortepianoda ifodali ravishda chalib berish, kerak bo'lsa dirijyorlik qilib, o'quvchi kayfiyatini chog'lash kabi vositalardan foydalanib, ijro etilayotgan kuyning xususiyatlarini ko'rsatib tursa, yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Qo'shiq aytilayotganda erkin, ravon ovoz bilan aniq va tiniq pardalarda, usulga qat'iy rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga qo'shiq aytish jarayonida musiqa tilining ayrim sirlarini ochib borishga katta ahamiyat berish o'rinli bo'ladi. Ya'ni kuy jumlasining ohanglardan tuzilishi, ular tarkibidagi urg'u tushgan tovushlarning ahamiyati, jumlaning boshlanishi va tugallanishiga alohida e'tibor berish zarur.

Qo'shiq aytish va pyesalarni chalish paytida oldindan shu qo'shiqqa yoki kuyga taalluqli tovushni ovoz yordamida topib, so'ngra fortepianoda chalishga kirishish kerak, chunki kerakli tovushni idrok etmaguncha uni fortepianoda topib bo'lmaydi. Shu bilan birga fortepianoda chiqariladigan tovush asarning mazmuniga chambarchas bog'liq ekanligini hech qachon unutmaslik lozim.

Agar o'quvchi kuychan, g'amgin, nozik, o'ynoqi, hazil-mutoyiba xarakteridagi kabi ohangli tovushlarni ovozda qanchalik tez aniqlay olsa, uning klavishadan bunday tovushlarni topib chalishi shunchalik osonlashadi.

Kishida sezgilarning uyg'onishiga xafachilik, g'amginlik, biror narsadan ta'sirlanish, ruhan rohatlanish, chuqur falsafiy fikrlarga berilish, kuychanlik holati, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, o'yinqaroqlik, tantanalilik hollari, motam, shodu hurramlik, zavqlanish, xayol surish va boshqa holatlar asos bo'lishi mumkin.

Musiqa yaratilishida qo'llaniladigan tovushlar asarning mazmuniga, xarakteriga qarab har xil ma'noda kelishi mumkin. Masalan "do" tovushi bir asarda g'amgin his-tuyg'ularni ifodalasa, boshqa bir asarda shodu hurramlik kayfiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin va hokazo.

O'quvchining malakali ijrochi bo'lib yetishishida tovush oraliqlarini sezishi va eshitishi katta ahamiyatga ega. Chunki, tovush oraliqlarini sezish va eshitish tajribasi oshgan sari o'quvchining ijrochilik mahorati o'sib boradi.

Oraliqlar faqat tovushlar o'rtasidagina bo'lmay, balki sozanda tomonidan olinadigan tovush o'rtasida va klavishadan klaviaturaning ramasigacha ham mavjud. Oraliq pianinoning klavishasidan klaviaturaning chekkasigacha 7 mm; xonaki royalda 9 mm; katta konsert royalida 11 mm. ga yetadi. Bu oraliqlarni sezib o'tish asarning jozibasiga bog'liq.

Agar asar sho'x, tantanali, o'ynoqi va yengil tarzda bo'lsa, tovush oraliqlari ancha tor tuyuladi va aksincha.

Musiqa asarining chuqur mazmunli ijro etilishi uni his etish orqali klavishani tana og'irligi bilan barmoq orqali bosishga bog'liq. Ijrochi o'zining ichki ruhiy holatlarini, falsafiy fikrlarini ifodalash uchun sezgi a'zolari barmoqlar yordamida go'yoki klavisha bilan ulangandek bo'ladi.

Aks holda klavishadan jonsiz, ma'nosiz tovush eshitiladi. Bu borada ulug' nemis kompozitori Lyudvig van Betxovenning: "Musiqa kishi qalbida alanga yoqib yuborishi kerak" - degan so'zlari yuqorida aytilganlarga yaqqol dalil bo'lib xizmat qila oladi.

Fortepianoda chalishda eng muhimi barmoq bilan klavishani sezgandan so'ng, uni tana og'irligi yordamida bosib ma'noli tovush chiqara bilishdir. Agar o'quvchi shunga erishsa, bu uning ijrochilik imkoniyati rivojlanib borayotganidan darak beradi. Ma'noli tovush chiqarishdagi klavishani bosish paytini xuddi parashyutning havoni kesib tushib kelayotganiga o'xshatish mumkin.

Kuychan va ma'noli tovush hosil qilish uchun birinchidan, tovush cho'zimi, ikkinchidan, tovush sifatini his etish kerak.

Qadim zamonlardan beri fortepianoda chalishda asosan ikki xil ijro etish uslubi qo' llanib kelinadi. Ulardan biri — qo' l tomirlarini tarang qilib kuch yordamida klavishani bosish, ikkinchisi — tana og' irligi yordamida qo'l tomirlarini tarang qilmagan holda klavishani bosish.

Gavda og'irligi yordamida ijro etish yo'li ulug' pianinochilardan Ferens List, Friderik Shopen, Anton Rubinshteyn, Sergey Rahmaninovlarda kuzatilgan.

Kuychan va ma'noli tovush chiqarish uchun barmoq klavishani bosayotganda yarim yoy yasab

o‘tishi kerak. Bunda barmoq bilan qo‘l tomirlari go‘yo klavishani o‘yib silayotganga o‘xshaydi.

Fortepianoda tovushlarni bir-biriga bog‘lab chalishga kirishishdan oldin, ularni ovoz yordamida bog‘lab kuylashni mashq qilish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchi tovushlarni ovozda bog‘lab kuylashga erishgandan so‘ng, fortepianoda tovushlarni bog‘lab chalishga kirishsa, yaxshi natija beradi.

Tovushlarning bir-biriga bog‘lanishi esa, o‘z navbatida bevosita kuy jumlalarining tuzilishiga bog‘liq.

Shunga ko‘ra, musiqaning ifoda vositalari jumlalar tuzilishi yo‘llariga tayangan holda olib borilsa, o‘quvchining musiqa tilini tushunishiga yordam beradi. Odatda jumla qanchalik serma’no bo‘lsa, urg‘u tushgan tovushlar shuncha ko‘p bo‘ladi. Jumla tuzilishi hamma vaqt qayerga? va qayerdan? degan savollarga javob berishi shart. Jumlaning boshlanishidan avjigacha davom etgan masofa qayerga degan savolga javob bersa, jumlaning avjidan oxirigacha bo‘lgan oraliq qayerdan degan savolga javob beradi.

Ijrochi jumlaning avjigacha kelgan masofani butun vujudi bilan o‘tishga intilsa, jumlaning avjidan yakunigacha ancha tinchlanib qaytadi.

Kuy jumlasi bir necha ohanglardan tuzilib, shaklan va mazmunan tugal bo‘lmagan ma’noni anglatadi.

Kuy davri esa — ikki-uch jumladan tuzilib, nisbatan tugal bir shakl va ma’noga ega.

Fortepiano tovushlarining davomati, cho‘zimi va hamsadoligi unga o‘rnatilgan maxsus tepki — "pedal"lar bilan boshqarib boriladi. "Pedal" fortepianoning qalbi", — deb aytgan edi ulug‘ rus pianinochisi Anton Rubinshteyn.

Haqiqatan ham musiqa asarini bezashda pedal juda muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Lekin undan foydalanishda juda ehtiyotkorlik zarur. Avvalo o‘quvchilarda har xil mashqlar yordamida sof pedalni eshitish ko‘nikmalarini hosil qilish lozim. So‘ngra faqat urg‘u tushgan tovushlarga yoki akkordlargagina qisqa pedal bosish mashqlarini bajartirishga o‘tish mumkin. Asta-sekin kech qoluvchi, ya’ni tovushlarni bir-biriga ulovchi pedallar ustida ish yuritish mumkin. Noo‘rin bosilgan pedal asar mazmunini buzib yuborishini ham unutmaslik kerak.

Musiqa asarining matni o‘zlashtirilgandan so‘ng, pedalning qaysi joylarda bosilishini eshitib ko‘rish yo‘li orqali aniqlash va uni bosish o‘rinli.

Asar kuyining jarangdorligini pedal yordamida boyitish o‘quvchilarning eshitish qobiliyatiga ham bog‘liq ekanini unutmaslik lozim.

Fortepianoda chalishni o‘rgatishning dastlabki davrlaridan boshlaboq dinamik belgilarning ahamiyati to‘g‘risida tushuncha berib borish zarur. Chunki, kuy va qo‘shiqlarni rang-barang bezab, ifodali ijro etishda bunday vositalar muhim o‘rin tutadi.

Dastlabki mashg‘ulotlarda o‘qituvchi o‘zbek musiqasi xususiyatlariga alohida e’tibor berib, ularni muntazam qayd qilib, o‘quvchilarning ularni o‘zlashtirib borishiga erishishi lozim. Chunki, darslikning asosiy qismini tashkil qiluvchi asarlar o‘zbek musiqasining turli janrlariga xos bo‘lgan uslublar zaminida yaratilgandir.

Aksariyat o‘zbek kuylarida shunday yashirin bezaklar borki, ularni sezish va topib eshitish yo‘lida ko‘p mehnat qilish kerak. Ijobiy natijalarga erishish uchun qo‘shiq, ashula, raqs hamda xalq cholg‘ularida ijro etilgan kuylarning asl yo‘llarini vaqt-vaqti bilan darsda va darsdan tashqari paytlarda diqqat bilan tinglab turish, o‘zbek xalq musiqasining sir-asrorini tushunish va ularni o‘zlashtirib borishga yordam beradi.

Fortepianoda chala boshlashdan oldin barmoqlarning tabiiy holatini topish kerak. Agarda barmoqlar chalish oldidan yoziq yoki yig‘iq holda bo‘lsa, qo‘l tomirlarining tarang bo‘lib turganidan dalolat beradi.

Barmoqlar yarim yoy shakliga o‘xshab, bo‘g‘inlarning bir-biriga tayanib, harakatchan holatda bo‘lishi va faqat klavishani bosgan barmoqning tomiri ish holatiga kelishi eng to‘g‘ri yo‘l deb hisoblanadi.

Boshlang‘ich o‘qish davrida klavishani gavda og‘irligi yordamida bosib chalishga ehtiyotlik bilan kirishish lozim, chunki bu sohada shoshma-shosharlik qo‘l tomirlarining charchashiga sabab bo‘ladi hamda har xil qo‘l og‘riqlariga olib kelishi mumkin.

Har bir darsda o‘quvchiga ortiqcha nasihat qilmay, uning diqqat-e’tiborini o‘rganilayotgan asosiy masalalarga jalb qilish o‘rinlidir.

O‘quvchining birinchi o‘quv yilini tugallashida biror asarni ma’noli kuychan tovushlar bilan ijro etishi, rang-barang dinamik o‘zgarishlarni eshitib, ijro etilayotgan kuyni qisqacha ta’riflab bera olishi, birinchi o‘quv yili material-

larini muvaffaqiyatli o'zlashtirganidan darak beradi.

Yosh o'qituvchilarning dastlabki mashg'ulotlarni to'g'ri uyushtirishi va mazmunli o'tishiga erishishi uchun ularga quyidagi maslahatlarni berishni lozim topdik.

Birinchi dars

1. O' quvchi bilan tanishish va o' zini tanishtirish.

2. Musiqa to' g' risida qisqacha suhbat o' tkazish.

3. O' qituvchi boladan o' zi yaxshi ko' rgan qo'shiqlaridan bir-ikkitasini aytib berishni so'raydi va ularni qisqacha tahlil qiladi.

4. O' qituvchi darslikdagi qo' shiqlardan bir-ikkitasini fortepianoda ifodali va zavq bilan kuylab, chalib beradi. O'quvchi bilan shu qo'shiqlar to'g'risida fikr yuritadi. Qo'shiqlarning mazmuni haqida suhbat o'tkazadi.

5. Fortepiano tarixidan qisqacha ma'lumot beradi, uning tuzilishi hamda tarkibiy qismlari bilan tanishtiradi.

6. Fortepianoda ilk bor chalishga kirishishdan avval har bir qo'lni alohida-alohida so'ngra har ikkala qo'lni birga stol ustiga yoki tizza ko'ziga bo'sh tashlashni mashq qildiriladi. Bu mashqda barmoqlar tabiiy bo'sh holida bo'lib, qo'l og'irligi esa kaftga tushadi.

7. Uyga vazifa. Darsda o' tilganlarni uyda takrorlash.

Ikkinchi dars

1. O' tgan darsda o' tilgan mavzular qaytariladi va zarur bo'lsa yana takrorlanadi.

2. Musiqa tovushlarining nomlari bilan tanishtiriladi. Tovushlarning har xil cho'zimda bo'lishi, yuqori, past tovushlar to'g'risida hamda pauzalar haqida ma'lumot beriladi.

3.Agarda qo' lni stolga tashlash yaxshi o' zlashtirilgan bo' lsa, har qo' lda alohida 3-barmoq bilan qo'l og'irligini klavishaga tushirish ustida mashq qilinadi (vaqtincha barmoq bo'g'inlarini qaysi holda bo'lishiga ahamiyat berish kerak emas, aks holda bola qo'lini tarang qilib olishi mumkin). Boshlanishida barmoq kaft bilan birga klavishaga yotishi, qo'l og'irligini klavishaga tushirishga xalaqit bermaydi.

4. O' tgan darsdagi qo' shiqlarni o' qituvchi ko' rsatgan klavishadan boshlab chalishga harakat qilish va yangi qo' shiqlarini o' rganish.

5. Musiqa to' g' risida suhbat. Darslikdagi pyesalardan ayrimlarini o'qituvchi chalib beradi va ularning mazmuni to'g'risida suhbat o'tkazadi.

6. **Uyga vazifa.** Darsda o' tilganlarni takrorlash.

Uchinchi dars

1. Uyga berilgan vazifalarni tekshirish va kamchiliklar ustida ishlash.

2. Musiqiy tovushlarni nota chiziqlariga joylanishi haqida ma'lumot berish.

3. Har bir qo' lda alohida-alohida 3, 2, 4-barmoqlarni bemalol va shoshilmay klavishaga tushirish. Asta-sekin bolaning qobiliyatiga qarab, barmoq bo'g'inlariga tayangan holda, barmoqlarni klavishaga tushirishga o'tish mumkin.

4. O' rganilgan qo' shiqlarni har xil klavishalardan boshlab chalib ko'rish va yangi qo'shiqlarni o'rganish.

5. Musiqa haqida suhbat. Darslikdagi har-xil mavzudagi pyesalardan chalib berib, o'quvchining fikrlash, ijodiy xayol surish qobiliyatlarini boyitish ustida ish olib borish.

6. Yodlab olingan qo' shiqlardan birini o'qituvchi ko'rsatgan klavishadan boshlab har qo' lda alohida-alohida 3- barmoq bilan o' ng qo' lda 2- oktavada, chap qo' lda esa kichik oktavada chalish mashqlari.

7. **Uyga vazifa.** Darsda o' tilganlarni takrorlash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan ravshanki, fortepianoda chalishni endigina o'rgana boshlagan o'quvchi bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar asosan quyidagilardan iborat.

1. O' tilgan darsni takrorlash.

2. Yangi qo' shiq va kuy namunalari bilan tanishib borish.

3. Dastlabki chalish ko' nikmalarini o' zlashtirib borish.

4. Nazariy qism — har darsda yangi musiqa atamalarini yodlab borish.

5. Musiqa to' g' risida suhbat, kelgusida ham bu bo'lim o'z o'rnini yo'qotmasligi kerak. Chunki, o'quvchini ijodiy o'sib borishida u muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Uyga vazifa berish.

O'qituvchi har bir mashg'ulotdan ko'zlaniladigan maqsadga qarab uni o'tkazish tartibini biroz o'zgartirib borishi mumkin.

Xullas, bu qisqacha tavsiyalarda for-

tepianoda chalishni o'rgana boshlagan o'quvchi bilan dars o'tish uslubiga doir barcha zarur masalalarni batafsil va atroflicha yoritish maqsadi ko'zlanmagan.

Shu boisdan o'qituvchiga o'z malakasini muntazam ravishda takomillashtirib, yangi-yangi qo'llanmalar bilan tanishib borish tavsiya etiladi.

Musiqa nazariyasidan qisqacha ma'lumotlar

Nota (lot. — "belgi") — musiqa tovushlarning yozuv belgisi.

Har bir musiqiy tovush o'ziga xos nomga ega. Musiqada asosan har xil balandlikdagi yettita tovush ishlatiladi: do, re, mi, fa, sol, lya, si.

Ikki tovush nisbati interval deyiladi. Bir xil nomdagi ikki tovush nisbati oktava deb ataladi.

Fortepiano klaviaturasi 7,5 oktavadan iborat.

Har bir oktavaning ham o'ziga xos nomlari bor. Klaviaturaning o'rtasidan (fortepiano qopqog'ining o'rtasiga yozilgan firma nomi hamda pedal ko'rinishi yordamida aniqlanadi) o'ngga qarab, 1, 2, 3, 4 va to' lmagan 5- oktavalar joylashgan.

Chapga qarab esa kichik, katta, kontr va subkontr oktavalar keladi.

Musiqiy tovushlarining sadolanish davri har xil balandlik va yzunlikda bo'ladi, ular yozuv belgilari yordamida turlicha aks ettiriladi.

Bu belgilarning o'ziga xos nomlari bor:

butun nota.

yarimtalik nota.

chorak nota

yoki nimchorak notalar.

yoki o' n oltilik notalar.

Notaning o' ng tomoniga qo' yilgan nuqta tovushning cho'zilishini yarim barobar oshiradi.

Masalan:

Musiqiy tovushlarning past-balandligini aks ettirish uchun besh parallel chiziqlar qo'llaniladi. Nota yo'li chiziqlari pastdan yuqoriga qarab sanaladi:

Notalar chiziqlarga:

chiziqlar orasiga:

chiziq ostiga:

chiziq ustiga:

yozilishi mumkin.

Shuningdek, nota yo'lining ostidagi qo'shimcha chiziqlarga va ularning oralig'iga:

Nota yo'lining ustidagi qo'shimcha chiziqlarga va ularning oralig'iga:



joylashtiriladi.

Pauzalar

Tovush eshitilishidagi vaqtincha to'xtalish, sukunat *pauza* deyiladi.

Pauzalar ham notalar kabi har xil cho' zimga ega bo' ladi: 1) butun pauza, 2) yarimtalik pauza, 3) chorak pauza, 4) nimchorak pauza.

Pauzaning o'ng tomoniga qo'yilgan nuqta uning cho'zimini yarim barobar uzaytiradi.

Musiqiy kalitlar

Kalit maxsus belgi bo'lib, u nota yo'li chiziqlarining biriga qo'yiladi hamda muayyan balandlikdagi tovushlarning o'rnini aniqlaydi.

Kalit belgisi nota yo'lining boshiga qo'yiladi. Fortepiano asarlarini yozish uchun ikki xil kalitdan foydalaniladi.

1. Skripka kaliti

2. Bas kaliti

Skripka kaliti (*sol* kaliti deb ham ataladi) birinchi oktavadagi *sol* tovushi nota yo'lining ikkinchi chizig'iga yozilishini ko'rsatadi:

Bas kaliti (*fa* kaliti deb ham ataladi) kichik oktavadagi *fa* tovushi nota yo'lining to'rtinchi chizig'iga yozilishini ko'rsatadi:



Notalarning joylashishi:



Takt

Musiqa asarining bir kuchli hissasidan keyingi kuchli hissasigacha bo'lgan bo'lagi *takt* deb ataladi.

Taktlar bir-biridan takt chizig'i bilan ajratiladi. Takt chiziqlari kuchli hissalarning chap tomoniga qo'yiladi.

Kalit yoniga qo'yilgan kasr raqamlari bo'laklar sonini, mahraji esa shu bo'laklar cho'zimini anglatadi:

$\frac{4}{4}$, $\frac{3}{4}$, $\frac{2}{4}$, $\frac{3}{8}$ va hokazo.

Applikatura

Musiqa asarini chalishda barmoqlarning taqsimlanishi *applikatura* deb ataladi.

Notaning ustiga yoki ostiga qo'yilgan raqam shu klavishani qaysi barmoq bilan bosish kerakligini ko'rsatadi.

Fortepiano asarlari akkolada degan katta qavs bilan birlashtirilgan ikki nota yo'liga yoziladi:



Nota yozuvini qisqartirish maqsadida maxsus belgilar ishlatiladi.

Qaytarish (repriza) belgisi — butun bir asarni yoki uning muayyan qismini qaytarish zarurligini ko'rsatadi:

Volta butun bir asarni yoki uning muayyan gismini takrorlashda har xil tamom bo'lishini aks ettiradi:



Bunda asarni dastlabki ijro etilishida birinchi volta, qaytarishda esa uning o'rniga ikkinchi volta matni chalinadi. Juda baland va juda past tovushlarni yozish uchun ko'plab qo'shimcha chiziqlarni ishlatmaslik maqsadida 8····· belgisi qo'llaniladi. Bu belgi notalar ustiga yozilsa, bir oktava ko'tarib ijro etilishini bildiradi.

Notalarning ostiga qo' yilgan 8..... belgisi esa bir oktava pastda chalinishini ko'rsatadi.

Alteratsiya belgilari

Ikki yonma-yon tovushning balandlik jihatidan eng kichik oralig'i yarim ton deb ataladi. Ikkita yarim ton — bir tonni hosil qiladi. Har bir tovush yarim ton va bir ton ko'tarilishi yoki pasaytirilishi mumkin.

Bunday pasayish yoki ko'tarilish alteratsiya (ya'ni o'zgarish) belgisi bilan ko'rsatiladi.

Diyez — # tovushni yarim ton ko' tarish belgisi.

Bemol — ♭ tovushni yarim ton pasaytirish belgisi.

Dubl-diyez — 𝄪 tovushni bir ton ko' tarish belgisi.

Dubl - bemol — 𝄫 tovushni bir ton pasaytirish belgisi.

Bekar ♮ diyez yoki bemol kuchini bekor qilish belgisi.

Kalitning o'ng tomoniga yozilgan diyez yoki bemollar — kalit belgilari deyiladi va ular butun asar davomida o'z kuchini saqlaydi. Nota oldiga qo'yilgan alteratsiya belgilari tasodifiy belgilar deb atalib, faqat belgi qo'yilgan takt davomida o'z kuchini saqlaydi.

Tovushlarni bir-biriga bog'lab chalishni ko' rsatish uchun yoysimon chiziq — "liga" ishlatiladi:

Bir xil balandlikdagi ikki notani birlashtiruvchi liga — ikkinchi tovush chalinmay, balki birinchi notaning davomi sifatida yangrashini bildiradi:

Notalar ustiga yoki ostiga qo'yilgan nuqtalar stakkato, ya'ni tovushlarning qisqa-qisqa uzib chalinishini ko'rsatadi.

Liga bilan birlashtirilgan notalar ustiga yoki ostiga nuqtalar qo'yilgan bo'lsa, non legato, ya'ni tovushlar bir-biridan ajratilib, aniq-aniq, ma'nodor chalinadi:

Akkord tovushlarining pastdan yuqoriga birin-ketin chalinishi arpedjio deyiladi va quyidagi belgi bilan ko'rsatiladi:

Kichik yozuvdagi notalar — forshlag deb ataladi. U qochirimning bir turi bo'lib, asosiy tovushni bezagi sifatida xizmat qiladi:

Nota ustiga yoki ostiga qo' yilgan belgi *fermata* deb atalib, tovush yoki pauzaning cho'zimini bir yarim-ikki baravar uzaytiradi.

Triol — 3 ta tovushdan tuzilib, cho' zimi bo'yicha ikki hissaga teng keladi:



— o' ng pedalni bosish belgisi

✱ — pedalni qo' yib yuborish belgisi.

Ritm

Musiqiy tovushlarni muayyan vaqt qonuniyati asosida kelishi *ritm* deyiladi.

Metr (vazn) — ritmning o' lchov vositasidir. Metr bir xil cho'zimdagi muayyan ritmik bo'laklarning to'xtovsiz takrorlanishida ko'rinadi.

Ohang — kuyning eng kichik ifodali bo'lagi bo'lib, bir necha ketma-ket olingan tovushlardan hosil bo'ladi.

Musiqa atamalarining qisqacha lug'ati:

accelerando —	tezlatish
adagio —	og'ir, vazmin sur'at
ad libimum —	erkin ravishda
agitato —	hayajonli, ta'sirchan
allargando —	kengaytirib, vazminlashtirib
allegretto —	jonli, zavq-shavq bilan
allegro —	tez
andante —	shoshilmay
animato —	jonlantirmoq, ilhomlantirmoq
a tempo	avvalgi sur'atda
calando —	tovush kuchini asta-sekin pasaytirish
cantabile —	kuychan
crescendo —	kuchaytirib
dolce —	nozik, yumshoq
dolente —	g'amgin, qayg'uli
espessivo —	aniq, ma'noli, ifodali
largo —	keng, vazmin
marcato —	ajratib, aniq ko'rsatib
legato —	bog'lab
lento —	sekin-asta, cho'zib
meno mosso —	sekinroq, shoshilmay
moderato —	mo'tadil, o'rtacha harakatda

morendo —	asta so'nib
maestoso —	tantanali, mag'rur
pesante —	vazmin, og'ir
poco a poco —	tobora, asta-sekin
rallentando —	sekinlashtirib, susaytirib
rubato —	o'zi xohlagan usulda
scherzando —	hazilchan, o'ynoqi
sentimento —	ta'sirchan, ehtirosli
smorzando —	uzoqlashib, tinchlanib
stringendo —	hayajonli, zo'r g'ayrat bilan
subito —	to'satdan
ritenuto —	sekinlashib
tranguillo—	osoyishta, muloyim, nozik ruhda
leggiero —	yengil
lugubre —	g'amgin, motam ruhida

Darslikda uchraydigan dinamik belgilar:

f (forte) — kuchli
mf (mezzo forte) — kuchliroq
ff (fortissimo) — juda kuchli
p (piano) — muloyim, sekin
mp (mezzo piano) — biroz muloyimroq
pp (pianissimo) — juda muloyim, kuchsiz
sf (sfortzando) — tovushni birdaniga zo'r kuch bilan chalish
— yangrashni asta kuchaytirish belgisi
— yangrashni asta pasaytirish belgisi

Darslikka kiritilgan asarlarni chalishga doir uslubiy ko'rsatmalar

Fortepianoda chalishga kirishishdan avval qo'shiqlarni aytish va o'rganilgan qo'shiqlarni fortepianodan topib chalish eng qulay yo'l hisoblanadi.

Qo'shiq har qo'lda alohida-alohida uchinchi barmoq bilan, o'ng qo'lda ikkinchi oktavada, chap qo'lda kichik oktavada chalinadi.

Qo'shiqlarning ma'noli, aniq, ravon va ta'sirchan, usulni buzmasdan aytilishiga alohida e'tibor berish lozim.

Qo'shiq jonli, harakatchan ijro etilishi uchun uning xarakterini aniqlash zarur. Bunda qo'shiqning chalinishida qora va oq klavishalarining bevosita ishtirok etishi to'g'risida ma'lumot berish o'rinli bo'ladi.

O'rganilgan qo'shiqlarni har xil klavishalardan topib (transpozitsiya qilib) chalish bolaning eshitish qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi.

O'qituvchi qo'shiq va kuylar ustida ish olib borish bilan birga, musiqa savodidan mazkur dars uchun kerakli ma'lumotlarni berib borishi kerak.

Ikki-uch qo'shiq ovozda o'rganilgandan so'ng ularni klaviaturadan topib chalishga kirishish mumkin.

Mashg'ulot davomida o'quvchining fortepiano oldida to'g'ri o'tirishiga e'tibor berish bilan birga ularga fortepianoning qisqacha tarixi bo'yicha ma'lumot berib turish ham lozim.

Qo'shiq o'rganish bilan bir qatorda qo'l va barmoq bo'g'inlarining harakatlari ustida muntazam mehnat qilish lozim. Kuy va pyesalar barmoq bilan ijro etilmay, balki barmoq yordamida sezgi a'zolari orqali ijro etilishini hech qachon unutmaslik zarur. Shu sababli birinchi darslardan boshlab qo'shiq, kuy va pyesalarni ma'noli, kuychan, ta'sirchan ijro etilishida sezgi a'zolarining bevosita ishtirok etishi yo'lida tinmay mehnat qilish o'rinli bo'ladi.

Bir klavishadan har xil mazmundagi tovushlarni ovoz yordamida topish uchun mashqlar o'tkazish, kelgusida har xil ma'nodagi tovushlarni klavishadan tezroq topib chalishga ancha yordam beradi.

Ashula aytish paytida uning so'zlarini aniq talaffuz etish, ohanglarini tiniqligiga erishish, usul va jumla tuzilishining buzilmasligiga, to'g'ri nafas olishga intilish zarur.

Asta-sekin qo'shiqlarni hamma barmoqlar bilan navbatma-navbat chalishga o'tish kerak.

Badan og'irligi bilan klavishani barmoq yordamida ezganda, barmoq bo'g'inlari birbiriga tayangan holda harakat qilib, klavishadan to'la va ma'noli tovush chiqishiga yo'l ochib beradi.

Ijro etish jarayonida barmoq bo'g'inlari yarim yoy shaklida bo'lishi kerak, aks holda barmoqlar juda yig'iq yoki yoziq shaklda bo'lsa, qo'l va barmoq tomirlarining tarang bo'lib qolganidan darak beradi.

Barmoqlar sezgi a'zolari bilan ulanmasa klavishadan jonsiz va ma'nosiz tovushlar chiqadi.

"Do'lana" misolidan boshlab qo'shiqlarning usullari anchagina murakkablashadi. Shun-

ing uchun bu namunalarni vaqtincha faqat ovozda aytib klavishadan topib chalishga, o'quvchining qobiliyatiga qarab, shoshilmay kirishish lozim.

"Zuv-zuv borag'ay" misolidan boshlab, qo'shiqlar ikki qo'lga bo'lingan.

Qo'llarning navbatma-navbat almashuvida jumlalar mazmunining buzilmasligiga erishish kerak, barmoqlar esa kelgusi notaga oldindan tayyorlanib turmog'i lozim.

"Boychechak" namunasi har xil barmoqlar vositasida aniq va jonli tovushlar bilan qo'l og'irligini yelkadan asta tushirib, barmoq bo'g'inlari bir-biriga tayangan holda chalinadi.

"Murabbojon" kuyida 1, 3, 5, 7- taktlarda urg'ular taktlarning kuchsiz xissalariga tushgan. Bunday vazn holati *sinkopa* deb ataladi. Kuy esa shodiyona kayfiyatda chaqqon va harakatchan tovushlar orqali sadolanadi.

"Yomg'ir yog'oloq" qo'shig'i aniq-aniq ravshan holda qo'l bo'g'inlarini epchil harakati bilan quvnoq chalinadi.

"Ertalab" nomli qo'shiqda notalar ostiga nuqtalar qo'yilgan, nuqtalar tovushlarni kalta-kalta uzib chalish kerakligini ko'rsatadi. Tovushlarni uzib-uzib chalish jarayonida bir tovushning ikkinchi tovushga o'tishini quloq yordamida sezib, eshitib o'tishga ahamiyat berish kerak.

"Bibigul", "Modelcham", "Quvnoq g'ozlar" nomli qo'shiqlar ravon va epchil harakatlar bilan bardam kayfiyatda, o'ynoqi chalinadi. Bu qo'shiqlarda dinamik o'zgarishlarga alohida e'tibor berish kerak. Notalarning chaqqon chalinishi tirsak va bilak bo'g'inlarining epchil harakatiga bog'liq.

Tovushlarni bog'lab chalishga kirishishdan avval ularni ovozda bog'lab aytishni mashq qilish yaxshi natija beradi.

Bog'lab chalishda bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tilganini eshitish orqaligina ijro etish lozim.

Tovushlarni bir-biriga bog'lashda ortiqcha harakat qilmay, barmoqlarni uncha ko'tarmay bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tish malakalarini hosil qilishga alohida e'tibor berish darkor. Shu bilan birga bu mashqni bajarishda qo'l bo'g'inlari tarang bo'lib qotib qolgan holda bo'lmasligi lozim.

"Bilaguzuk", "Kuz", "Dangasa" misollarida tovushlarni qaysi usulda bog'lab chalish kuyning mazmuniga bog'liqdir. Agarda kuy yoki pyesa g'amgin, kishini xayol og'ushiga olib ketuvchi chuqur mazmunli bo'lsa, barmoqlarni klavishadan ko'tarmagan holda klavishani bosib ikkinchi tovushga (tovush oralig'ini sezib) tananing muloyim harakati yordamida siljib o'tiladi.

Liga bilan bog'langan kuylar bardam, o'ynoqi, hazil va sho'x xarakterda bo'lsa, unda tovushlar qo'l bo'g'inlari yordamida bog'lanib, kuy dona-dona tovushlar bilan epchil chalinadi. Bunda barmoqlar chaqqon harakat qiladi. Shuning uchun o'quvchini kuyning qay tarzda chalinishini ko'z bilan taxminan qarab aniqlay olishga o'rgatish lozim.

Ularni chalishda jumla tuzilishiga, dinamik belgilarga katta ahamiyat berish kerak.

"O'zbek kuyi ruhida", "O'ynaylik omon", "Vengr xalq qo'shig'i" nomli kuylar, qo'l bo'g'inlari orqali bog'lanib, barmoqlar tovushlarni aniq va chaqqon olgan holda hayajonli ravishda chalinadi. Qo'l tomirlarining biroz tarang tortilgan holatda bo'lishi kuylarni o'ynoqi chalinishiga yordam beradi. O'quvchi misolning notalariga qarab uni qaysi usulda chalinishini ayta olishi o'quvchining bog'lab chalishning har xil yo'llarini tushunganidan darak beradi.

"Yallama yorim" kuyini ijro etish yo'li "O'ynaylik omon" misoliga o'xshash.

F. Nazarovning "Qo' shig' i", "Men o' zim, men o'zim" nomli kuylar quvnoq, o'ynoqi usulda ilhomlanib, tovushlarni irg'itib ijro etiladi (bu usul to'pning irg'ishiga o'xshab ketadi).

Kuylar ko'tarinki kayfiyatda ijro etilishi uchun tirsak bo'g'ini prujinaga o'xshab harakatlanib, bilak bo'g'ini sal tarang holda bo'lishi lozim.

"Sigircham" va "Ukrain xalq qo'shig'i" namunalari barmoqlar yordamida bog'lanib kuychan, ma'nodor va yoqimli tovushlar orqali ijro etiladi. Bu kuylarda qo' l va barmoqlarning klavishani yengil bosishi orqali kerakli natijaga erishiladi.

"Qashqarcha" nomli kuyning ijro etilishi "O'ynaylik omon" misolining ijro etish yo'liga o'xshaydi.

"Biz baxtiyor bolalarmiz", "Jamalagim", "O'zbek xalq kuyi ruhida" kuylarida tovushlarni bog'lovchi ligalar bo'lishiga qaramay, kuylar chaqqon va aniq tovushlar bilan ijro etiladi. "O'zbek xalq kuyi ruhida" kuyida ikki ovozni mustaqil eshitilishiga e'tibor berish kerak.

"Ariran" koreys xalq qo'shig'i hamda "Alla" nomli kuylar kuychan, xayolchan kayfiyatda chalinadi. Bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tishda navbatdagi tovushga oldindan tayyorlanish, birinchi tovushning ikkinchi tovushga sezgi a'zolari yordamida intilishi kerakligini esdan chiqarmaslik lozim.

"Alla" kuyida chap qo'lda ijro etiladigan juft tovushlarning mayin eshitilishi uchun "mi" tovushidan "lya" tovushiga o'tishda bilak bo'g'ini pastdan yarim yoy yasashi kerak.

"O'zbek xalq kuyi ruhida" nomli navbatdagi misol aniq va kuychan tovushlar bilan ijro etilib, ikkala ovozni bir vaqtda ravon va mustaqil eshitilishiga e'tibor berish zarur.

"Buxorcha" namunasi g'ayrat bilan, sho'x ijro etiladi. Kuyning ma'nodor eshitilishida dinamik belgilarga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

I. Akbarovning "Baxtiyorlar qo' shig' i"dan boshlab beshta misol chaqqon va shakrovchan tovushlar bilan sho' x va o' yinqaroq holda ijro etiladi. Kuylarning ma'nolari mazmunli chalinishi uchun qo' l bo' g' inlari harakatchan holda bo' lib barmoq bo' g' inlari esa bir-biriga tayangan holda harakat qilishi kerak.

Texnikaviy xarakterdagi pyesalarga yoki mashqlarga "etyud" deb aytiladi. Etyudlar asosan kuylarda uchraydigan qiyinchiliklarni oldini olishga yordam beradi.

I. Hamrayevning "Bog' chamiz" misolidan boshlab to' rt qo' lda ijro etish uchun mo' ljallangan pyesalar uchraydi. Jo' rnavozlikda chalishda hamkorning chalishiga diqqat bilan quloq solib borish zaruriy shartlardan biridir.

"Qadimiy fransuz qo' shig' i" chuqur mazmunda bo' lib, ma'noli va g' amgin tovushlar bilan ta'sirchan kayfiyatda ijro etiladi. Bu kuy o' quvchining ijodiy hayolini, falsafiy fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Il. Akbarovning "Archa bayroqchasi" nomli kuyi o' ynoqi va qisqa-qisqa tovushlar bilan ijro etiladi. Bunda chap qo' lda doira usulini topish uchun alohida mashq qilish o' rinlidir.

M. Krutitskiyning "Qish" nomli kuyini ijro etish jarayonida ijrochi o' ziga xos go' zal qish manzaralarini ko' z oldiga keltirishi kerak. Kuy g' amgin tovushlar bilan xayolchan kayfiyatni ifoda etishi uchun klavishani qattiq bosib, ma'nodor tovushlar bilan ijro etilishi lozim.

Navbatdagi etyud — "Jonon" kuyi ohanglar asosida bo' lib, muayyan qiyinchiliklarni yengish maqsadida yaratilgan.

Ik. Akbarovning "Sayrang qushlar" kuyi xushohang tovushlar bilan rohatlanib ijro etiladi. Bunda bir vaqtda ikki ohangni bir-biriga taqqoslab kuyning ravon eshitilishiga ahamiyat berish zarur.

G' . Qodirovning "Bahor keldi" o' ynoqi kuyi chaqqon va sakrama tovushlar bilan ijro etilib, chap qo' ldagi doira usuliga, ya'ni ikki "SI" oralig' ining kengligiga ahamiyat berish kerak. Kuyning holatini ochib berishda dinamik belgilarning ahamiyati katta.

"Yali-yali" o' zbek xalq kuyi sho' x va o' yinqaroq, barmoqlar yig' ilgan va biroz tarang holda ijro etiladi. Ijro vaqtida urg' u tushgan tovushlarni ta'kidlab, tovushlar orasidagi undovlarga ahamiyat berib boriladi. Bu esa kuyning ma'nodor ijro etilishiga ko'mak beradi.

D. Levidovaning "Qo' shiq" nomli kuyini chalishda o'ng qo'lda chalinadigan tovushlar uzilib qolmasdan bir-biriga bog'liq holda muloyim eshitilishi chap qo'lda ijro etiluvchi jo'rlikning harakatiga bog'liq.

Navbatdagi etyud o'zbek xalq o'yinlarini ko'tarinki kayfiyat bilan ijro etishga yordam beradi va chaqqon, kalta-kalta tovushlar bilan o'ynoqi, jonli ijro etiladi.

"Gulbahor" — o' zbek xalqining eng sevimli dilrabo va ilhomlantiruvchi raqsbop kuylaridan biridir. Bu kuy chaqqon va sakrama tovushlar bilan shodiyona kayfiyatda ijro etiladi.

Keyingi "etyud" esa uforiy raqsidagi murakkab usulni o'zlashtirishga yordam beradi.

"O' zbek xalq qo' shig' i ruhida", L. Motsartning "Hazil" nomli kuylari chaqqon va aniq tovushlar bilan quvnoq to'lqinlanib ijro etiladi.

